Aynan shu nuqtai nazardan xorij tajribasining ahamiyati yanada ortadi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar raqamli bank xizmatlarini turli modellar asosida rivojlantirgan: ayrim davlatlarda markaziy bank yetakchiligida yagona to'lov infratuzilmasi shakllantirilgan bo'lsa, boshqalarida xususiy sektor tomonidan ekotizim modeli rivojlantirilgan, yana ayrim mamlakatlarda esa qonunchilik asosida banklarning ma'lumot almashinuvi mexanizmlari yo'lga qo'yilgan. Ushbu tajribalarni o'rganish O'zbekiston banklari va regulatori uchun ikki jihatdan muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, samaradorligi amaliyotda tasdiqlangan yechimlarni joriy etish imkonini beradi, ikkinchidan esa boshqa mamlakatlar tajribasida kuzatilgan kamchilik va xatolarni takrorlamaslikka xizmat qiladi. Biroq ilmiy adabiyotlarda xorijiy tajribani bevosita va mexanik tarzda ko'chirib olish maqsadga muvofiq emasligi ham ta'kidlanadi. Har bir modelning muvaffaqiyati muayyan institutsional, demografik va texnologik omillar bilan bog'liq bo'lib, ushbu omillar boshqa mamlakatlarda to'liq shakllanmagan bo'lishi mumkin. Shu sababli tadqiqotning maqsadi xorijiy modellarni tavsiflash bilan cheklanib qolmay, ularning O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlarini baholash mezonlarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida quyidagi savollarga javob izlanadi: qaysi xorijiy modellar O'zbekiston uchun eng katta ahamiyatga ega, ularning muvaffaqiyatini qanday omillar ta'minlagan hamda mazkur tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirishda qanday tamoyillarga tayanish lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish va to'lov infratuzilmasini modernizatsiya qilish masalalari so'nggi yillarda xalqaro miqyosda keng tadqiq etilmoqda. Atlantic Council tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda Braziliya va Hindiston tajribasi misolida tezkor to'lov tizimlarining moliyaviy xizmatlar qamrovini kengaytirishdagi ahamiyati asoslab berilgan [1]. Banco Central do Brasil ma'lumotlariga ko'ra, Pix tizimi qisqa muddat ichida mamlakatning asosiy to'lov infratuzilmasiga aylanib, raqamli to'lovlar hajmining keskin oshishiga xizmat qilgan [2]. Demirgüç-Kunt, Klapper, Singer va Ansar tadqiqotlarida esa raqamli to'lovlar moliyaviy inklyuziyani oshirishning muhim omili sifatida baholangan [3]. EBANX hisobotlarida Pix tizimining iqtisodiy samaradorligi va foydalanuvchilar orasida ommalashish omillari batafsil yoritilgan [4].

Raqamli moliya va fintex texnologiyalarining bank tizimiga ta'siri Gomber, Koch va Siering tomonidan chuqur o'rganilgan bo'lib, mualliflar innovatsion texnologiyalar bank xizmatlari samaradorligini oshirishi va yangi biznes modellarini shakllantirishini ta'kidlaydilar [5]. Kaspi.kz tajribasi esa bank xizmatlari, elektron tijorat va to'lov tizimlarini yagona raqamli ekotizimga birlashtirish orqali yuqori natijalarga erishish mumkinligini ko'rsatadi [6]. Observer Research Foundation ekspertlari Hindistonning UPI tizimi va Braziliyaning Pix modeli misolida ochiq infratuzilma, raqamli identifikatsiya va fintex kompaniyalari ishtirokining raqamli transformatsiyadagi o'rnini asoslab berganlar [7].

O'zbekistonda raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari mamlakatda to'lov tizimlari va masofaviy bank xizmatlari hajmi barqaror o'sib borayotganini ko'rsatadi [8]. Statista prognozlariga ko'ra, yaqin yillarda raqamli to'lovlar va neobanklar bozori yanada kengayishi kutilmoqda [9]. UNDP tadqiqotlari aholining islomiy moliyaviy xizmatlarga bo'lgan qiziqishi ortib borayotganini qayd etadi [10]. Vives raqamli transformatsiya sharoitida banklar oldida kiberxavfsizlik, raqobat va texnologik moslashuv kabi vazifalar turganini ta'kidlaydi [11]. Bank Negara Malaysia hisobotlari islomiy moliyani raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalash tajribasini yoritgan bo'lsa [12], Heliyon jurnalida chop etilgan tadqiqot natijalari raqamli savodxonlik va texnologiyalardan foydalanish darajasi moliyaviy inklyuziyaga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi [13].



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot sifat usuliga asoslangan qiyosiy tahlil shaklida olib borildi. Bunday yondashuv o'rganilayotgan hodisaning ko'lami va tez o'zgaruvchanligi sababli tanlandi, chunki raqamli bank xizmatlari rivojlanishini yagona statistik ma'lumotlar to'plami asosida to'liq baholash imkoniyati cheklangan.

Tahlil uchun uch turdagi manbalardan foydalanildi. Birinchisi, 2017–2026-yillarda e'lon qilingan ilmiy maqolalar va monografiyalar bo'lib, ular raqamli moliya, moliyaviy inklyuziya hamda bank transformatsiyasining nazariy asoslarini yoritishga xizmat qildi. Ikkinchisi, xalqaro tashkilotlar, markaziy banklar va tadqiqot markazlari tomonidan tayyorlangan hisobotlar bo'lib, ulardan xorijiy modellarning amaliy natijalari va faoliyat ko'rsatkichlari olindi. Uchinchisi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari, milliy strategik hujjatlar hamda bozor statistikasi bo'lib, ular mahalliy sharoitni tavsiflash uchun foydalanildi. Tijorat manbalaridan olingan ma'lumotlar esa ehtiyotkorlik bilan, faqat rivojlanish tendensiyalarini ko'rsatish maqsadida qo'llanildi.

Xorijiy modellarni tanlashda to'rtta mezon asos qilib olindi. Birinchi mezon — natijaning isbotlanganligi bo'lib, model o'z mamlakatida amaliy jihatdan ijobiy natija bergan bo'lishi talab etildi. Ikkinchi mezon — sharoitlarning o'xshashligi bo'lib, rivojlanayotgan yoki tez transformatsiyalanayotgan iqtisodiyotlarda sinovdan o'tgan modellarga ustuvorlik berildi. Uchinchi mezon — dolzarblik bo'lib, model O'zbekiston bank tizimi oldida turgan aniq vazifalarga mos kelishi lozim edi. To'rtinchi mezon — hujjatlashtirilganlik bo'lib, model bo'yicha ishonchli va mustaqil manbalar mavjudligi hisobga olindi. Ushbu mezonlar asosida Braziliyaning Pix tizimi, Hindistonning UPI tizimi, Qozog'istonning Kaspi ekotizimi, Buyuk Britaniya va Yevropa Ittifoqining ochiq banking modeli hamda Malayziyaning islomiy moliya tajribasi tanlab olindi.

Tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Xususan, birlamchi ma'lumotlar, jumladan, bank mutaxassislari bilan intervyular o'tkazilmadi. Ayrim manbalarning tijorat yoki marketing xususiyatiga ega bo'lish ehtimoli mavjud. Shuningdek, raqamli moliya bozori yuqori sur'atlarda rivojlanayotgani sababli ayrim statistik ko'rsatkichlar vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin. Shu bois keltirilgan ma'lumotlar aniq miqdoriy baholashdan ko'ra rivojlanish tendensiyalarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar sifatida talqin qilindi. Ushbu holatlar tadqiqot natijalari va xulosalarini shakllantirishda inobatga olindi.

lozim. Ushbu cheklovlar xulosalar talqinida inobatga olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Tanlangan xorijiy modellarning umumiy tavsifi

Tahlil natijasida beshta xorijiy model O'zbekiston uchun eng yuqori ahamiyatga ega deb topildi. Ularning qisqacha tavsifi va O'zbekiston uchun asosiy saboqlari 1-jadvalda umumlashtirilgan bo'lib, keyingi bo'limlarda har biri alohida ko'rib chiqiladi.

1-jadval
Xorijiy modellar va ularning O'zbekiston uchun asosiy saboqlari¹

Model (mamlakat)	Mohiyati va asosiy natijalari	O'zbekiston uchun asosiy saboq
Pix (Braziliya)	Markaziy bank tomonidan yaratilgan tezkor to'lov tizimi; besh yil ichida aholining katta qismini qamrab oldi, yirik banklar uchun ishtirok majburiy etildi	Davlat infratuzilmasi va majburiy ishtirok tarmoq samarasini tezlashtiradi; firibgarlikka qarshi choralar boshidanoq rejalashtirilishi zarur
UPI (Hindiston)	Ochiq dasturiy interfeyslarga asoslangan umumiy to'lov platformasi; fintex kompaniyalari uchun keng imkoniyat yaratdi	Ochiq interfeyslar xususiy innovatsiyalarni rag'batlantiradi; raqamli identifikatsiya tizimi poydevor vazifasini bajaradi
Kaspi (Qozog'iston)	To'lov, savdo va moliya xizmatlarini birlashtirgan superilova; aholining katta qismini qamrab olgan va yuqori rentabellikka erishgan	Ekotizim modeli mintaqada samarali ishlashi mumkin; kundalik ehtiyojlarga mos xizmatlar va savdogarlar tarmog'i muvaffaqiyat omili hisoblanadi
Ochiq banking (Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqi)	Qonunchilik asosida banklar mijoz roziligi bilan ma'lumotlarni uchinchi tomonlarga ochishga majbur etildi	Yagona texnik standartlar va rozilik qoidalari zarur; ixtiyoriy yondashuv sekin natija beradi
Islomiy raqamli moliya (Malayziya)	Islomiy moliya uchun to'liq institutsional tizim: qonunchilik, standartlar, kadrlar tayyorlash va raqamli islomiy banklar	Institutsional poydevor mahsulotlardan oldin shakllantirilishi lozim; raqamli kanallar islomiy xizmatlarni arzon yetkazish imkonini beradi

1 Muallif ishlanmasi



2. Braziliya va Hindiston: davlat yaratgan to'lov infratuzilmasi

Braziliyaning Pix tizimi 2020-yil noyabr oyida Markaziy bank tomonidan ishga tushirilgan bo'lib, jahondagi eng tez ommalashgan tezkor to'lov tizimlaridan biri hisoblanadi. Besh yil ichida tizim har oy milliardlab tranzaksiyalarni qayta ishlaydigan darajaga yetdi va mamlakat aholisining mutlaq ko'pchiligi undan foydalana boshladi. Yillik tranzaksiyalar hajmi trillionlab AQSH dollari bilan o'lchanadi. Tizim muvaffaqiyatining asosiy omillari sifatida yirik moliya institutlari uchun ishtirokning majburiy etilgani, xalqaro standartlarga asoslangan yagona texnik yechim hamda telefon raqami yoki soliq identifikatori kabi oddiy identifikatorlar orqali o'tkazmalarni amalga oshirish imkoniyati e'tirof etiladi.

Hindistonning UPI tizimi esa boshqacha yondashuv asosida shakllantirildi. U yarim mustaqil milliy to'lov korporatsiyasi tomonidan boshqariladigan, ochiq dasturiy interfeyslarga asoslangan markazlashmagan platforma sifatida rivojlantirildi. Dastlabki yillarda o'sish sur'atlari nisbatan past bo'lgan bo'lsa-da, raqamli identifikatsiya tizimi, smartfonlar ommalashuvi va xususiy to'lov provayderlarining bozorga kirib kelishi natijasida tizim oyiga o'n to'qqiz milliarddan ortiq tranzaksiyani qayta ishlash darajasiga erishdi. UPI tajribasining muhim jihati shundaki, ochiq interfeyslar banklar bilan bir qatorda fintex kompaniyalariga ham yangi xizmatlar yaratish imkonini berdi, bu esa raqobat va innovatsiyalarni kuchaytirdi.

Har ikkala tajriba ham muhim saboqni namoyon etadi. Tezkor to'lov tizimlarining keng ommalashuvi bilan firibgarlik holatlari ham ortib borgan va har ikki mamlakat himoya mexanizmlarini keyingi bosqichlarda kuchaytirishga majbur bo'lgan. Shu sababli O'zbekistonda tezkor to'lov tizimlarini rivojlantirish jarayonida firibgarlikka qarshi mexanizmlarni dastlabki loyihalash bosqichidayoq joriy etish maqsadga muvofiqdir.

3. Qozog'iston: ekotizim va superilova modeli

Qo'shni Qozog'istonning Kaspi tajribasi O'zbekiston uchun eng yaqin va amaliy ahamiyatga ega misollardan biri hisoblanadi. Oddiy tijorat banki sifatida faoliyat boshlagan ushbu tashkilot to'lovlar, elektron savdo va moliyaviy xizmatlarni yagona superilovada birlashtirish orqali mamlakat aholisining katta qismini qamrab oldi. Faol foydalanuvchilar soni o'n to'rt milliondan oshgan bo'lib, ilova orqali mamlakatdagi raqamli to'lovlarning katta qismi amalga oshiriladi va kompaniya yuqori rentabellik bilan faoliyat yuritadi.

Kaspi muvaffaqiyatining asosiy omillari bir nechta yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, xizmatlar foydalanuvchilarning kundalik ehtiyojlariga moslashtirilgan. Ikkinchidan, iste'molchilar bilan bir qatorda savdogarlar uchun ham alohida platforma yaratilgan bo'lib, bu ikki tomonlama tarmoq samaradorligini ta'minlaydi. Uchinchidan, kompaniya o'zining to'lov infratuzilmasi va kredit skoring tizimini mustaqil ravishda rivojlantirgan. Mazkur modelning Markaziy Osiyo sharoitida muvaffaqiyatli ishlashi O'zbekiston uchun ham muhim amaliy ahamiyatga ega.

4. Buyuk Britaniya va Yevropa Ittifoqi: ochiq banking

Ochiq banking modeli banklarni mijoz roziligi asosida hisob ma'lumotlari va to'lov funksiyalarini litsenziyalangan uchinchi tomonlarga xavfsiz dasturiy interfeyslar orqali taqdim etishga majbur qiladi. Buyuk Britaniyada ushbu model raqobat organlari tashabbusi bilan, Yevropa Ittifoqida esa maxsus to'lov xizmatlari direktivasi asosida joriy etilgan. Natijada minglab fintex kompaniyalari bank ma'lumotlari asosida moliyaviy boshqaruv, kreditlash va to'lov xizmatlarini ishlab chiqdi hamda iste'molchilarning tanlov imkoniyatlari kengaydi.

Mazkur tajribadan ikkita muhim xulosa kelib chiqadi. Birinchidan, yagona texnik standartlar va aniq rozilik qoidalari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ikkinchidan, xavfsizlik masalalari markaziy o'rinda turadi, chunki har bir yangi integratsiya nuqtasi qo'shimcha himoya choralari talab qiladi. O'zbekiston uchun ushbu model alohida qiziqish uyg'otadi, chunki mavjud milliy to'lov tizimlari negizida ochiq banking tamoyillarini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkoniyati mavjud.

5. Malayziya: islomiy raqamli moliya

Malayziya islomiy moliyani rivojlantirish bo'yicha jahonda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi va uning tajribasi O'zbekiston uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Mamlakatda avval qonunchilik bazasi va markaziy bank huzuridagi shariat kengashi shakllantirilgan, keyinchalik buxgalteriya va audit standartlari joriy etilgan hamda kadrlar tayyorlash tizimi yo'lga qo'yilgan. Shundan so'ng bozor faol rivojlanish bosqichiga o'tgan. Keyingi davrda esa raqamli islomiy banklarga litsenziyalar berilib, xizmatlarni to'liq onlayn ko'rsatish modeli sinovdan o'tkazilgan.

O'zbekiston sharoitida ushbu tajribaning ahamiyati ikki jihatda namoyon bo'ladi. Birinchidan, aholining ma'lum qismi diniy tamoyillarga mos moliyaviy xizmatlarga qiziqish bildiradi. Ikkinchidan, Malayziya tajribasi islomiy moliyaviy mahsulotlarni boshidanoq raqamli formatda loyihalash maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, shariat nazorati, audit tizimi va malakali kadrlar tayyorlash masalalariga yetarli e'tibor qaratilishi zarur.

6. Xorij tajribasini moslashtirish mezonlari

Beshta modelni qiyosiy o'rganish xorijiy tajribadan foydalanishning umumiy qonuniyatlarini aniqlash imkonini berdi. Birinchi qonuniyat shundan iboratki, muvaffaqiyatli modellar alohida texnologiyadan emas, balki texnologiya, huquqiy baza, institutlar va iste'molchi odatlarining uyg'unligidan tashkil topadi. Ikkinchi



qonuniyatga ko'ra, davlat va xususiy sektor vazifalari to'g'ri taqsimlanganda eng yuqori samaraga erishiladi. Uchinchi qonuniyat esa har qanday yangi model bilan birga yangi xavflar ham yuzaga kelishini ko'rsatadi. Jumladan, firibgarlik, bozor konsentratsiyasi va raqamli tafovut kabi omillar oldindan boshqarilishi lozim.

Shu asosda xorijiy tajribani O'zbekiston sharoitiga moslashtirish uchun to'rt mezonli baholash tizimi taklif etiladi. Bular: sharoit mosligi, institutsional tayyorlik, iqtisodiy maqsadga muvofiqlik va ijtimoiy ta'sir mezonlaridir. Mazkur mezonlar har bir xorijiy modelni qabul qilish, moslashtirish yoki undan voz kechish bo'yicha asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari xorij tajribasining ahamiyati to'g'risidagi dastlabki savolga aniq javob beradi: uning ahamiyati tayyor yechimlarni nusxalashda emas, balki muvaffaqiyat omillarini ajratib olib, ularni mahalliy sharoitga moslashtirishda namoyon bo'ladi. Braziliya va Hindiston tajribasi davlat tomonidan yaratilgan umumiy infratuzilma raqamli bank xizmatlarining rivojlanishini bir necha barobar tezlashtirishi mumkinligini ko'rsatadi. Biroq bunday infratuzilma samarali ishlashi uchun raqamli identifikatsiya tizimi va keng qamrovli aloqa tarmog'i mavjud bo'lishi zarur. Qozog'iston tajribasi ekotizim modelining Markaziy Osiyo sharoitida ham muvaffaqiyatli ishlashini tasdiqlaydi, ammo uning asosida savdogarlar tarmog'i va kundalik ehtiyojlarga yo'naltirilgan mahsulot strategiyasi yotadi. Ochiq banking tajribasi esa qonunchilikdagi majburiy talablar mavjud bo'lmaganda banklar ma'lumotlarni ochishga unchalik qiziqmasligini ko'rsatadi. Malayziya tajribasi esa institutsional poydevor mahsulotlardan oldin shakllantirilishi lozimligini tasdiqlaydi.

Mazkur xulosalar ilmiy adabiyotlarda keltirilgan umumiy qarashlar bilan hamohangdir. Raqamli moliya sohasidagi tadqiqotlar barqaror natijalar ilg'or ilovalardan emas, balki asosiy biznes jarayonlari va tarmoq tuzilmasidagi o'zgarishlar natijasida yuzaga kelishini ko'rsatadi (Gomber va boshqalar, 2017; Vives, 2019). Moliyaviy inklyuziya bo'yicha tadqiqotlarda esa xizmatlardan foydalanish imkoniyatining o'zi yetarli emasligi, foydalanuvchilar ishonchi, moliyaviy savodxonlik va xizmat sifati muhim omillar ekani ta'kidlanadi (Demirgüç-Kunt va boshqalar, 2022). Ushbu tadqiqot xorij tajribasini tanlash va moslashtirish uchun amaliy mezonlar tizimini taklif etishi bilan mavjud ilmiy qarashlarni to'ldiradi.

Tahlil natijalaridan O'zbekiston banklari va regulyatori uchun bir qator ustuvor yo'nalishlar kelib chiqadi. Banklar uchun birinchi ustuvor yo'nalish Kaspi tajribasidan kelib chiqib, savdogarlar platformalari va kundalik xizmatlar integratsiyasini yanada chuqurlashtirishdan iborat. Ikkinchi ustuvor yo'nalish UPI tajribasi asosida ochiq interfeyslar orqali fintex kompaniyalari bilan hamkorlikni kengaytirish hisoblanadi. Uchinchi ustuvor yo'nalish esa Malayziya tajribasiga tayangan holda islomiy moliyaviy mahsulotlarni boshidanoq raqamli formatda loyihalashdan iborat. Regulyator uchun esa birinchi ustuvor vazifa Pix tajribasi asosida tezkor to'lov tizimini yagona standartlar va firibgarlikka qarshi mexanizmlar bilan yanada takomillashtirishdir. Ikkinchi ustuvor vazifa ochiq banking bo'yicha huquqiy baza va texnik standartlarni shakllantirish bo'lsa, uchinchi ustuvor vazifa islomiy moliya bozorini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan nazorat tizimi va kadrlar salohiyatini mustahkamlashdan iborat. Barcha yo'nalishlarda raqamli savodxonlik va iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga investitsiyalarni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki xalqaro tajriba foydalanuvchilar ishonchi mavjud bo'lmagan sharoitda hatto eng ilg'or texnologiyalar ham kutilgan natijani bermasligini ko'rsatmoqda.

Alohida ta'kidlash joizki, xorij tajribasini o'rganish bir martalik tadbir emas, balki uzluksiz jarayon bo'lishi lozim. Jahon amaliyoti jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda: tezkor to'lov tizimlari chegaralararo integratsiyaga o'tmoqda, superilovalar sun'iy intellekt texnologiyalarini faol joriy etmoqda, ochiq banking esa ochiq moliya konsepsiyasiga kengayib bormoqda. Shu sababli banklar va regulyatorlar xalqaro tajribani muntazam kuzatib borish, tahlil qilish va mahalliy sharoitga moslashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadigan doimiy mexanizmlarni shakllantirishi maqsadga muvofiqdir. Xususan, ixtisoslashgan tahlil markazlari, ilmiy-tadqiqot platformalari va xalqaro hamkorlik dasturlarini rivojlantirish ushbu jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijasida O'zbekistonda raqamli bank xizmatlarini takomillashtirishda xorij tajribasining ahamiyati qiyosiy tahlil asosida o'rganildi. Braziliyaning Pix tizimi, Hindistonning UPI platformasi, Qozog'istonning Kaspi ekotizimi, Buyuk Britaniya va Yevropa Ittifoqining ochiq banking modeli hamda Malayziyaning islomiy raqamli moliya tajribasi tahlil qilinib, ularning har biri O'zbekiston bank tizimi oldida turgan muayyan vazifalarni hal etishda muhim amaliy ahamiyatga ega ekani aniqlandi.

Tadqiqotning asosiy xulosasi shundan iboratki, xorij tajribasining haqiqiy qiymati tayyor yechimlarni bevosita ko'chirib olishda emas, balki muvaffaqiyat omillari va amaliy saboqlarni tizimli ravishda o'rganib, ularni sharoit mosligi, institutsional tayyorlik, iqtisodiy maqsadga muvofiqlik hamda ijtimoiy ta'sir kabi mezonlar asosida milliy sharoitga moslashtirishda namoyon bo'ladi. O'zbekiston milliy to'lov infratuzilmasining rivojlanib borayotgani, raqamli bank xizmatlari ko'lamining kengayishi hamda islomiy moliya yo'nalishida huquqiy asoslarning shakllanayotgani xorijiy tajribalarni samarali tatbiq etish uchun qulay imkoniyatlar yaratmoqda.



Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- tezkor to'lov tizimlarini rivojlantirishda Braziliyaning Pix tajribasidan foydalanib, yagona standartlar va firibgarlikka qarshi himoya mexanizmlarini yanada takomillashtirish;
- Hindistonning UPI modeli asosida banklar va fintex kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish maqsadida ochiq dasturiy interfeyslar (API) tizimini rivojlantirish;
- Qozog'istonning Kaspi tajribasiga tayangan holda bank xizmatlari, elektron tijorat va kundalik to'lovlarni birlashtiruvchi raqamli ekotizimlarni kengaytirish;
- ochiq banking tamoyillarini joriy etish uchun zarur bo'lgan huquqiy baza, texnik standartlar va ma'lumotlar xavfsizligi mexanizmlarini shakllantirish;
- Malayziya tajribasidan kelib chiqib, islomiy moliyaviy mahsulotlarni raqamli shaklda rivojlantirish hamda ushbu yo'nalishda malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish;
- aholi va tadbirkorlik subyektlarining raqamli moliyaviy savodxonligini oshirish orqali raqamli bank xizmatlaridan foydalanish darajasini kengaytirish.

Tadqiqotning ayrim cheklolari ham mavjud. Xususan, tadqiqot jarayonida birlamchi ma'lumotlardan foydalanilmagani hamda raqamli moliya bozorining tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgani natijalarga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli kelgusidagi tadqiqotlarda O'zbekiston banklarida xorijiy tajribalar asosida joriy etilgan yechimlarning amaliy natijalarini birlamchi ma'lumotlar asosida o'rganish, ularning samaradorligini miqdoriy baholash hamda Markaziy Osiyo mamlakatlari tajribasini o'zaro qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Atlantic Council. Fast Payments in Action: Emerging Lessons from Brazil and India. – Washington, DC: Atlantic Council, 2026.
2. Banco Central do Brasil. Pix Statistics and Management Report. – Brasilia: BCB, 2025.
3. Demirgüç-Kunt A., Klapper L., Singer D., Ansar S. The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience. – Washington, DC: World Bank, 2022.
4. EBANX. Beyond Borders: Pix Five-Year Milestone Study. – Curitiba: EBANX, 2025.
5. Gomber P., Koch J.A., Siering M. Digital Finance and FinTech: Current Research and Future Research Directions. // *Journal of Business Economics*. – 2017. – Vol. 87, No. 5. – P. 537–580.
6. Kaspi.kz. Annual Report and Sustainability Disclosures. – Almaty: Kaspi.kz, 2025.
7. Observer Research Foundation. Digital Public Infrastructure and the Future of Digital Payments: Lessons from Pix and UPI. – New Delhi: ORF, 2026.
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. To'lov tizimlari bo'yicha statistik byulleten. – Toshkent: Markaziy bank, 2024.
9. Statista. Digital Payments and Neobanking: Uzbekistan Market Forecast. – Hamburg: Statista, 2025.
10. United Nations Development Programme (UNDP). O'zbekistonda islomiy moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talab bo'yicha so'rov. – Toshkent: UNDP, 2025.
11. Vives X. Digital Disruption in Banking. // *Annual Review of Financial Economics*. – 2019. – Vol. 11. – P. 243–272.
12. Bank Negara Malaysia. Financial Sector Blueprint and Islamic Finance Development Reports. – Kuala Lumpur: BNM, 2024.
13. The Impact of Digital Literacy and Technology Adoption on Financial Inclusion in Africa, Asia, and Latin America. // *Heliyon*. – Elsevier, 2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>